Xalqaro matematiklar uyushmasi ayollar komitetining birinchi Osiyo va Okeaniya davlatlari vakillari yig’ilishi bo’lib o’tdi

Joriy 2021-yil 25-26-iyun kunlari Xalqaro Matematiklar uyushmasining ayollar komiteti tomonidan birinchi Osiyo va Okeaniya davlatlari vakillarining yig’ilishi bo’lib o’tdi.

Yig’ilishda Xalqaro matematiklar uyushmasi ayollar komitetining O’zbekistondagi vakili va Yevropa ayol matematiklar jamiyatining O’zbekistondagi koordinatiri Xorazm Ma’mun akademiyasi aniq fanlar bo’limi boshlig’i, fizika-matematika fanlari doktori Baltayeva Umida Ismoilovna qatnashdi. Yig’ilishda Osiyo va Okeaniya davlatlarida faoliyat yurituvchi matematik xotin-qizlar hamkorligini kengaytirish masalalari ko’rildi. Bunda U.Baltayeva hamkorlikni mustahkamlash uchun Osiyo va Okeaniya davlatlari xotin-qizlari uchun aynan maxsus tematik ilmiy seminarlar va workshoplar tashkil etilishini taklif etdi. O’zida katta auditoriyani qamrab oluvchi ushbu davlatlar uchun fanning muayyan yo’nalishidagi ilmiy seminarlar tashkil etilishi, tadqiqotchi xotin-qizlaning ilmiy ishlarini rivojlantirish muhim ekanligini ta’kidladi. Shuningdek, bu kabi hamkorliklar qo’shma ilmiy loyihalar va yuqori saviyadagi nashrlarda ilmiy maqolalar hajmini oshirishga xizmat qilishini aytib o’tdi.